

8. Boltaboyev H. 20 asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi.//Fil. Fanl. doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati.-T., 1996.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

YANGI G‘AZALLARDA MAVZUNING IJTIMOIYLASHUVI

Nazarova Dildora Ilhomovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)., dotsent
e-mail: nazarova.dildora@bsmi.uz) +998914122802
ORCID iD: 0009-0000-7891-3377

Annotatsiya: Sharq va o‘zbek mumtoz adabiyoti an‘analari zamonaviy adabiyotimizning ham shakl, ham mazmun jihatdan boyishiga xizmat qildi. Ushbu maqolada yangi o‘zbek she‘riyati ijtimoiylashuvi haqida fikr yuritiladi. Ya‘ni shoir o‘zbek mumtoz adabiyotiga xos devon tuzishi an‘anasini XX asrda davom ettirdi. Bunda u, avvalo, janriy xilma-xillikka intildi, qolaversa, aruzda yozish an‘anasiga ergashdi. G‘azal aruzda yoziladigan eng murakkab va ancha qiyin janrdir. U g‘azalnavisdan oz so‘zida ko‘p ma‘no berish, fikr durdonalarini badiiy tashbeh sadaflari ichida taqdim etishni talab etuvchi janrdir. Shuning uchun bu janrda qalam tebratish oson ish emas. Bu ijodkordan yuksak iqtidorni, qobiliyatni, mahoratni, teran xayol va ehtirosni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy, istiora, tajnis, talmeh, tashbeh, tazod

SOCIALIZATION OF THE TOPIC IN NEW GHAZALS

Abstract: Eastern and Uzbek classical literature traditions served to enrich our modern literature both in terms of form and content. This article discusses the socialization of new Uzbek poetry. In this, first of all, he strove for genre variety, and, besides, he followed the tradition of writing in aruz. Ghazal is the most complex and difficult genre written in poetry. It is a genre that requires a ghazal writer to give a lot of meaning in a few words, to present masterpieces of thought in artistic allusions. Therefore, it is not an easy task to shake a pen in this genre. This requires high talent, ability, skill, deep imagination and passion from the creator.

Key words: social, metaphor, tajnis, talmeh, tashbeh, tazad

СОЦИАЛИЗАЦИЯ ТЕМЫ В НОВЫХ ГАЗЕЛЯХ

Аннотация: Восточные и узбекские классические литературные традиции обогатили нашу современную литературу как по форме, так и по содержанию. В статье

рассматривается социализация новой узбекской поэзии. При этом он, прежде всего, стремился к жанровому разнообразию, а кроме того, следовал традиции письма на арузском языке. Газель – самый сложный и трудный жанр, написанный в поэзии. Это жанр, требующий от газелиста в нескольких словах передать большой смысл, представить шедевры мысли в художественных аллюзиях. Поэтому потрясти перо в этом жанре – задача непростая. Это требует от творца высокого таланта, способностей, мастерства, глубокого воображения и энтузиазма.

Ключевые слова: социальный, метафора, таджнис, талме, ташбе, тазад.

KIRISH

Yangi o‘zbek she’riyatida yaratilgan g‘azalarda mavzuning ijtimoiylashuvi kuzatiladi. Bunga sabab – adabiyotning real hayotga yaqinlashganligi, badiiy asarlarga dunyoviy qahramonlarning kirib kelganligi bilan bog‘liq. Qolaversa, yangi she’riyat deb atalayotgan davr o‘tgan asr boshlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shu nuqtai nazardan mumtoz an’ana sifatida davom etgan g‘azalchilik mazmuniga ham shunday o‘zgarishlar, transformatsion jarayonlar o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Natijada Cho‘lpon, Charxiy, Habibiy, Chustiy, E.Vohidov, J.Kamol, A.Oripov, S.Sayyid kabi shoirlar ijodida ishqiy g‘azalardan tashqari istiqlol, erk, vatan mavzusidagi she’rlar yaratildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Erkin Vohidov g‘azaliyotida tabiat, jamiyat, Vatan, komil inson, ma’naviyat, axloq mavzulari chuqur badiiy tahlil etiladi. E.Vohidovning realistik tasvir asosida yozilgan bir qancha g‘azallari o‘zbek g‘azalchiligi tarixiga yangi sahifa bo‘lib qo‘shildi: “G‘uncha”, “Samarqand”, “Sarv”, “Do‘stlariga”, “Lola sayli”, “Samar bo‘lg‘ay”, “Netay”, “Yoshligim”, “Shohigul”, “Do‘st bilan obod uying”, “Shirin”, “Zamon”, “Gulchehralar” kabi g‘azallari mulohazalarimizni tasdiqlaydi. “Shirin” radifli g‘azalda ham sohibi davronlik nash’asini surib, do‘stu yorlar davrasi lazzatidan bahramand bo‘lib yashayotgan zamondoshimizning go‘zal tuyg‘ulari bosh pafos sifatida yangraydi. Bu tuyg‘u o‘quvchiga g‘oyat shirin zavq-shavq baxsh etadi:

Dilkusho do‘st, dilrabo yor
Birla o‘tgan dam shirin.
Do‘stu yor birlan hayotu
Siynayi olam shirin (285)

Mazkur satrlar beixtiyor Boburning “Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbatlari” deb boshlanuvchi g‘azalini yodga soladi. Demak, g‘azalda an’anaviylik bag‘rida zamonaviy insonning orzulari namoyon bo‘lmoqda.

Erkin Vohidovning “Samarqand” nomli g‘azalida ko‘hna shahar tarixi lirik talqin qilingan. Shu orqali shoir o‘zining Vatanga muhabbat g‘oyalari bilan sug‘orilgan lirik kechinmalarini ifoda etadi. U Samarqand shahrining moviy gumbazlarini ko‘zdan kechirarkan, ko‘ngli

xayollarning otashin girdobida qolib, bu saroylarining g‘ishti mazlum elning ko‘z yoshi bilan xokidan bunyodga kelganligini xotirga keltiradi. U shu zaminda yashab o‘tgan Mirzo Ulug‘bekni yodga oladi.

Demak, E.Vohidov g‘azalchilikda Alisher Navoiy she‘riyatiga ham mazmun, ham shakl jihatidan ergashgan. Shoirning o‘ziga xosligi shundaki, u mumtoz janrdagi asarlarga zamonaviy ruh olib kirdi.

Shoir she‘riyatida ijtimoiy mazmundagi g‘azallar ham mavjud. Jumladan, “Bu zamon g‘azali” deb nomlangan g‘azal bu jihatdan e‘tiborli:

Tillashibdir bo‘ri birla tozilar,
Birlashibdir o‘g‘ri birla qozilar.(91)

E‘tibor berilsa, g‘azalda bugungi hayotimizdagi noxush holatlar, ma‘naviy buzilishlar aks etgan. Shoir bo‘ri, tozilar der ekan, inson qiyofasidagi ayrim noqis kimsalarga ishora qiladi.

Biz chunon xizmatga belni bog‘ladik,
Bormi himmat o‘lchagich torozilar.

Bu misralarda shoir “himmat o‘lchagich torozilar” der ekan, avvalo, tarozini ko‘chma ma‘noda qo‘llaydi. Bu ifoda ham ma‘naviy hayotimizga daxldordir.

Jamol Kamolning «Shohimardon bulbullari» g‘azali ramali musammani mahzuf (- V - - / - V - - / - V - - / - V -) vaznida yozilgan bo‘lib, tashbeh va tanosub san‘atlari asosida go‘zal bir kompozitsiyani tashkil etgan:

Shohimardon, / muncha ham xush / xon ekan bul / bullaring,
Sutdek oydin / kechalarda / jon ekan bul / bullaring...
Foilotun / foilotun / foilotun / foilun/
Boshim uzra lahza-lahza yondilar, o‘rtandilar,
Kuyganimni yo magar bilgon ekan bulbullaring...⁶⁵

Shoir bulbulning go‘zal xonishini tinglarkan, beixtiyor qalbidagi dard-u hasratlari tug‘yon qiladi, bulbul esa, uning qalbidan nimalar kechayotganini bilib turgandek, yangroq ovozda sayrashda davom etadi. Bu yoqimli ovoz oshiq qalbga malham qo‘ygandek bo‘ladi.

Bu jahonda bir jahon ermish azaldin so‘z-u soz,
Men-ku tuproqmen, vale osmon ekan bulbullaring.
Tingladim men, angladim men, lol-u hayronlar qolib,
Voh, mening holimga ham, hayron ekan bulbullaring...

Shoir keyingi baytda bulbul xonishini yurtimizning, istiqlolimizning ajoyib bir ne‘mati sifatida baholaydi:

Men uchun dorul hayotdir, menga qismatdir Vatan,
Qismatimdan bir ajab ehson ekan bulbullaring...

⁶⁵ Жамол Камол. Аср билан видолашув. Сайланма. Олти жилдлик. I жилд. –Тошкент: F.Фуллом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. – Б. 272.

Haqiqatan, shoir vatanning bir bo‘lagi Shohimardon, uning g‘azalxon bulbullari haqida yozar ekan, uning xonishida aziz Vatan qismatini ko‘radi. Aslida bunda bulbul mumtoz adabiyotdagi ma‘nosi kengayib istiqloq xabarini olib kelgan timsol sifatida gavdalanadi.

Shoir do‘stlik haqida yozar ekan, uni «muhabbatning ulug‘ dunyosi» deya ataydi. Do‘stlikda muhabbatning sirli va ulug‘ kuchi jamdir. Shuningdek, uning bag‘rida saodat atalmish ulug‘ tuyg‘u daryo kabi oqadi. Do‘stlik – muhabbat va saodat tuyg‘ulari birligidan hosil bo‘luvchi sirli tuyg‘udir.

Qalbimizda el-elatlarga saodat javhari,
Qonimizda shu shafolatning asl kimyosidir.

Shoir bu baytda o‘zbek millatiga xos bo‘lgan mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik fazilatlarini ulug‘laydi, boshqa millat vakillariga nisbatan hurmat, samimiyat o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan.

Biz uchun ravshan quyosh osti shu olam bir kitob,
Jonajon do‘stlik, birodarlik uning imlosidir.

Shoir keyingi baytda tashbeh san‘atidan mohirona foydalanib, kurrayi zaminni kitobga, do‘stlik va birodarlik tuyg‘ularini esa shu kitobning imlosi, yozuvlariga qiyoslaydi. Ya‘ni agar dunyoni bir kitob deb qarajak, do‘stlik undagi insonlarga ulashiluvchi ma‘rifatdir. Yozuvsiz kitob bo‘lmaganidek, do‘stlik, birodarlik, hamjihatlik tuyg‘ulari bo‘lmagan joyda tinchlik, osoyishtalik bo‘lmaydi.

Do‘st bo‘lib, do‘stlik chamanzorin yaratdik, shul sabab,
Yurtimiz ahli basharning zebidir, zebosidir.

Jamol Kamol keyingi baytda yurtimizni «do‘stlik tuyg‘usining chamanzori» deya ataydi. Yurt sha‘ni ulug‘langan ohorli tashbehda xalqimizning mehmondo‘stligi nazarda tutilgan. Shu fazilati tufayli, shoir fikricha, ahli bashar, dunyo malakatlariga zeb, chiroy berib turadi. Mumtoz adabiyotda suyukli go‘zal «zebo» deb tashbehlanadi. Shoirning o‘ziga xosligi, u mazkur tashbehni Vatanga nisbatan qo‘llaydi.

«Do‘stlik» g‘azalidagi g‘oyalar «Hur diyorim» deb boshlanuvchi g‘azalida davom ettirilgan. Unda shoir o‘zbek millatiga xos bo‘lgan bag‘rikenglik, do‘stlik, birodarlik tuyg‘ularini ulug‘laydi va bundan iftixor qiladi.

Hur diyorim boshida hur bayrog‘idir, bag‘rida –
Angla: qirmiz, angla: qamar, angla surx tillosi bor.

Shoir keyingi baytda adabiyotimizning zabardast vakillari –Erkin Vohidov, O‘tkir Hoshimov, Abdulla Oripovni yodga olib, ularni o‘z o‘rniga va o‘z so‘zi, ovozigacha ega bulbullar deya ta‘rif etadi. Ayni vaqtda shu o‘rinda go‘zal talmeh ham yaratilgan.

Bu chaman bulbullari ko‘p, ayru-ayru navqiron,
Erkini bor, O‘tkiri bor, qo‘yki, Abdullosi bor.

Jamol Kamol g‘azallaridagi yana bir o‘ziga xoslik shundaki, ulardan ayrimlari boshdan-oxirigacha bir emas, bir necha mavzuda yozilishidir. Binobarin, quyidagi g‘azalning ilk

baytlarida yoriga muhabbatining chinligi haqida so‘zlab kelgan shoir bu tuyg‘uni iftixorga ulaydi va istiqloлга shukrona o‘qiydi:

Iftixor birla umid naqlini cho‘zding, ey Jamol,
Bas desangkim, chin so‘zimning naqdi, indallosi bor.
Iztirob aylarda dilning ohi birla otashi,
Iftixor aytarda tilning boli bor, halvosi bor...

Shoirning fikricha, chin so‘zning naqdi qalbida to‘lib-toshgan istiqloлга, shu kunlarga shukrona tuyg‘usidir.

Mirzo Kenjabekning “Istaram” radifli g‘azali ijtimoiy-falsafiy mavzuda bitilgan bo‘lib, aruzning ramal bahrida yozilgan. G‘azal insoniy xususiyatlar tarannumiga bag‘ishlangan.

Kim dediki, el aro men dodu bedod istaram? —

Dodu bedod ichra el ko‘nglini men shod istaram!

G‘azalning birinchi misrasi ritorik so‘roq gap bilan boshlangan. “Kim meni el aro notinchlik istaydi deydi, aslida men el ko‘nglini shod ko‘rmoqni istayman”, - deydi shoir yuqoridagi misralarda.

Shoirning bu g‘azali A.Navoiyning “Istaram” radifli g‘azaliga o‘xshatma tarzida bitgandek taassurot uy‘gotadi.

Sarvi ozodimni bog‘ ichra xiromon istaram,
Sabzasin sarsabzu gulbargini xandon istaram⁶⁶.

Biroq Navoiy qalamiga mansub ushbu g‘azal ishqiy mavzuda yozilganligi bilan Mirzo Kenjabek g‘azalidan farqlanadi.

O, nechunkim mustaram men, o‘zni o‘tga qistaram —

Bu jahon ichra muhabbat mulkin obod istaram!

She‘rni tahlil qilishdan oldin unda ifodalangan izohi qiyin so‘zlarning ma‘nosiga to‘xtalsak. Baytda qo‘llangan “mustaram” so‘zi arxaik so‘z bo‘lib, lug‘atlarda “mustaroh” – “osoyishta va rohat joy, to‘xtash joyi”⁶⁷ ma‘nosini ifodalagan. Shoir ushbu misralar orqali hech qachon harakatdan to‘xtamasligini, har qanday o‘tga o‘zini otishga tayyor ekanligini, muhabbatli yuraklarning ozod va hur bo‘lishini istashini lirik tarzda ifodalaydi.

Istamang, devona bu ruhimni barbod istamang,

Ul sitoram hajrida ko‘rinsa noshod istaram.

Shoir o‘zini o‘rab turgan jamiyatdan ruhini barbod qilmasliklarini so‘raydi. Ikkinchi misrada yorga “sitoram” deya murojaat qilish orqali istiora san‘atidan foydalangan. Sitora – yulduz bo‘lib, oshiq yordan yulduz kabi uzoqlikda bo‘lsa ham uni ko‘rib turishni xohlashini aytadi. Birinchi misradagi birinchi so‘zni shu qator oxirida qo‘llash orqali rad san‘atidan foydalangan. Shuningdek, istaram-istamang kabi jumlalar qarshilantirish san‘atini ham yuzaga keltirgan.

⁶⁶ Navoiy A.MAT. 4-jild. T.: Fan, 1989. B.-428.

⁶⁷ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4-jildlik, 2-jild. T.: Fan, 1983. B.-373.

Dilga ustod istaram men jismu jonim sirqirab,
Jismu jonim dardiga bir qatla imdod istaram.

Shoir ushbu misralarda jism-u jonini og‘ritayotgan his-tuyg‘ularni jilovlashga o‘rgatuvchi ustod lozimligini, dardlariga darmon, madad istayotganini badiiy ifodalagn. Ikkinchi misrada qo‘llangan *imdod* arabcha “madad, ko‘mak, yordam” ma‘nosini ifodalagan⁶⁸. Birinchi misrada qo‘llangan jism-u jonim jumlasini ikkinchi misrada takrorlash she‘rning badiiy ta‘sirchanligini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Bad niyatlar izlamang, men baxtdami, hijrondami,
Barcha odam naslining ruhini ozod istaram!

G‘azalning maqtasida muallif insoniyat ahliga yuzlanib, hayotdan doim badniyatlar izlamasliklariga da‘vat etadi. Shuningdek, baxt yoki hijronda ekanligidan qat‘i nazar odam naslining ruhini hamisga ozod, hur ko‘rishni istashi haqida barilla kuylaydi. *Shod, obod, noshod, imdod, ozod* so‘zlari qofiyani tashkil etib, muqayyad qofiyani tashkil etgan. G‘azalning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, ikkinchi bayt o‘zaro qofiyalangan bo‘lib (xandon-xiromon), boshqa baytlarga xos qofiyalanmaydi.

Mirzo Kenjabek qalamiga mansub “Ishongayman”radifli g‘azal o‘ziga xos mazmun-mohiyati bilan shoir ijodida ahamiyatga egadir.

Muhabbatda fakat sobit imonlarga ishongayman,
Vujudi xor, biroq ruhi omonlarga ishongayman.

Ijtimoiy-falsafiy mavzuda yozilgan ushbu g‘azalda yuksak insoniy fazilatlar tarannum etilgan. G‘azal mafoilun ruknining takroridan hosil bo‘lgan hazaji musammani solim vaznida yozilgan (V - - - / V - - - V - - - / V - - -). Lirik qahramon muhabbatda sobit bo‘lganlarga, shuningdek, o‘zi zamindek xokisor, biroq ruhi omon kabi bo‘lganlarga ishonchi baland ekanligini uqtiradi. Muhabbat deganda muallif keng qamrovli tushunchani nazarda tutadi.

Hama «yaxshi» degan silliq ahllardan gumonim bor,
Dili – bo‘ron, tili – chaqmoq «yomon»larga ishongayman.

Bu olamda hamma yaxshi deb bilgan kishilardan qochishini, hammaga yaxshi ko‘rinadigan kishilardan gumonda ekanligini aytar ekan, aslida ko‘pchilikka yomon ko‘rinadigan dili va tili bir bo‘lgan rostgo‘y kimsalarga ishonishini she‘riy misralarda ifodalaydi. Muallif “yaxshi” va “yomon” so‘zlarini qo‘llash orqali tazod san‘atini yuzaga keltirgan.

Bahorlarga ishongayman, ona tuproq yuzita boz
Yuzin bosgan zahil bargi xazonlarga ishongayman.

Hamid Olimjon “Har bahorda shu bo‘lar takror” deb aytganidek, shoir har yil bahor kelishiga, ona tuproq yuzini xazon bilan qoplaydigan kuzning kelishiga ishonishini ta‘kidlaydi.

Bas-ey, maddoh, bas-ey, to‘ti, bas-ey, shirinkalom kimsa.
Yurak-bag‘ri kuyuk, dardi nihonlarga ishongayman.

⁶⁸ Navoiy asarlari lug‘ati. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972. B.-272.

Lirik qahramon laganbardor maddohlarga, birovlarning gaponi takrorlab yuradigan to‘tilarga, ishini bitirib olguncha shirinso‘zlik qiluvchilarga aslo ishonmasligini, yurak-bag‘ri kuygan, sirlarini, dardini pinhon saqlaydiganlarga ishonishini ta‘kidlaydi. Baytning dastlabki misrasida “Bas-ey maddoh, bas-ey to‘ti, shirinkalom kimsa” kabi undalmalardn foydalanish orqali nido san‘atidan foydalanilgan.

Ishonchimni mening taftish etib, ey, gul, firoq etma,
Quyoshim kel, deya mashriq tomonlarga ishongayman.

Lirik qahramon yorga “ey gul” deya muroajaat etib, uni gulag qiyoslashi badiiy adabiyotdagi odatiy tashbehlardan hisoblanadi. yordan uning ishonchini, firoq o‘tida yoqib sabrini sinamasligini o‘tinib so‘raydi. Shuningdek, lirik qahramon har kun sharq tomondan quyosh chiqishiga ishonganidek yor ham bir kun uning oldiga kelishiga ishonadi.

Falak, bu ne azob bo‘ldi, deya kuymasman hijronda,
Fig‘onimni yutib, diydorli onlarga ishongayman.

Shoir yurak to‘la dard-u azobini bilan yonishini, firoq, hijronda ekanligini elga oshkor qilmaydi. Bu aslida Allohning sinovi ekanligiga, nolisa, arz qilsa, noshukurlik bo‘lishiga ishora qilib, hammasini ichga yutib, diydorli onlar kelishiga ishonishini badiiy tarzda ifodalagan. Shoir diydorli onlar deganda haqiqiy ma‘noda Alloh diydoriga erishishni nazarda tutadi. G‘azal maqta‘sida *azob, hijron, fig‘on, diydor* kabi ma‘no jihatdan bir-biriga yaqin so‘zlar tanosub san‘atini yuzaga keltirgan.

G‘azalda *imonlarga, omonlarga, yomonlarga, xazonlarga, nihonlarga, tomonlarga, onlarga* kabi qofiyadosh so‘zlar mutlaq qofiyani tashkil etagan.

Sirojiddin Sayyidning g‘azalchilikdagi izlanishlari alohida e‘tiborga molik. Uning turli mavzularda yozilgan “Ikki dil g‘azali”, “Muhabbat koshonasi”, “To Navoiy bor”, “Ayol manzumi”, “Oybek”, “Ilinj” kabi g‘azallari shular jumlasidandir. “Ilinj” she‘ri Vatanga muhabbat tuyg‘ulari bilan to‘lib-toshgan:

Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,
Kipriklarim o‘psalar bas gardlaringdan.
Men bir nasim bo‘lib keldim, men bir nasim,
Aytib o‘tsam deyman ko‘hna dardlaringdan.⁶⁹

Adabiyotshunos N.Rahimjonov bu she‘r haqida yozadi: “Shoir ijodiy individualligining o‘ziga xosligi shundaki, hayotimizdagi shunday hodisalarni, odamlar aro munosabat ko‘rinishlarini tanlab oladiki, u shoir qalbida katta bir ilhom alangasini yoqadi. Shoirning badiiy talqini, ijtimoiy-etetik umumlashma fikrlari samarasida voqelikning ana shu mitti bo‘lagi millat va Vatan taqdiriga daxldor mohiyati namoyon bo‘ladi”.⁷⁰ Binobarin, S.Sayyid satrlari tongda esgan nasim – shamol yanglig‘ qalblarga go‘zal tuyg‘ular, shabboda misol fikr-o‘ylar olib kiradi. Undagi poetik detallar: gard, nasim, sas, xas, barg, chiroq, buloq kabilar lirik qahramonning ona yurtga muhabbatini ifodalashga xizmat qilgan.

⁶⁹Sirojiddin Саййид. Қалдиғочларга бер айвонларингни. –Тошкент: “Шарқ”, 2005, 32-б.

⁷⁰Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. –Тошкент: “Фан”, 2007, 153-б.

Adabiyotshunos Nurboy Abdulhakim shoirning Vatan haqidagi o‘tli misralarini tahlil qila turib, “Ilinj” she’riga alohida to‘xtaladi: “Sirojiddin Sayyid – dardli shoir. Uning zohiran quvonchli holatlarning go‘zal poetik ifodai berilgandek ko‘ringan misralari zamirida ham elning, yurtning g‘amida yashayotgan ko‘ngil iztiroblari silqib turadi. “Ayvonlari nurga talosh, kayvonisi oyu quyosh” bo‘lgan Vatan haqida “ko‘zida yosh, yuzida yosh” bilan yozishining sababi shunda”.⁷¹

Sirojiddin Sayyidning “Mir Alisher” she’ri g‘azal kabi a-a, b-a, d-a, g-a shaklida qofiyalangan. Shoir ulug‘ Navoiyga bo‘lgan muhabbatini o‘tli satrlarda ifoda etadi:

Tiriklikning bongi Navoiy,
Buyuklikning rangi Navoiy.
Bir yorishdi zim-ziyo olam,
Turkiylarning tongi Navoiy,
Besh asrlik ro‘yodir dunyo,
Besh asrlik o‘ngi Navoiy.⁷²

E’tibor berilsa, she’rning har bir misrasida Navoiyning buyukligi ochib berilgan. Navoiyga nisbatan ishlatilgan sifatlashlar nihoyatda ohorli. Binobarin, Navoiy tiriklikning, hayotning ovozidir. Navoiyning dunyoga kelganligi zim-ziyo olamning yorishganligidir. Agar tabiat, hayot tunu kunduzdan, tongu shomlardan iborat bo‘lsa, Navoiy o‘zbekning tongidir. Zero, tong yorug‘lik ramzi, yangi hayotning boshlanishini ifoda etadi. Agar dunyo besh asrlik ro‘yodan - yolg‘ondan iborat bo‘lsa, uni rostga, o‘ngga aylantirgan kishi ham Navoiydir.

“Shoh Bobur” she’ri g‘azal ohanglarida bitilgan. Unda Boburning iztirobli lahzalari aks etgan:

Buncha ham oh tortdingiz, oh Bobur,
Muttahamlar dunyosida shoh Bobur...
Kecha uzun, manzil olis, yo‘l uzoq.
Sizga faqat yolg‘iz oy hamroh, Bobur
Nonko‘r beklar, beoqibat mirzolar,
Kimlar sizga qazmadilar, choh Bobur (15-b.)

Ma’lumki, Boburning hayoti murakkab davrda, jangu jadallarda kechgan. Dastlabki baytning birinchi misrasida “oh” so‘zi ikki marta qo‘llanilgan. Birinchisida - “oh tortdingiz” qo‘shma fe‘l tarkibida Boburning ruhiy holatini ifodalashga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchisida “oh” undov so‘z sifatida kelgan va o‘sha ruhiy holatning kuchliroq aks ettirilishini ta’min etgan. Keyingi baytda uzun kecha, olis yo‘lda oying hamrohlik qilishi Boburning shoirligini ifoda etadi. Boburga sadoqat va xiyonat oralig‘ida umr kechirgan. S.Sayyid uchinchi baytda ana shu voqelikka ishora qilib, nonko‘r beklar, beoqibat mirzolarining Boburga bir umr choh qazganligini tasvirlaydi.

⁷¹Абдулҳаким Нурбой. “Оламда энг оғир –сўзнинг йўлидир”// “ЎзАС”, 2005 йил, 1 сентябрь.

⁷²СаййидСирожиддин. Дил фасли. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2007, 121-б.

She‘rni o‘qish davomida S.Sayyidning shoh va shoir Bobur ruhiyatidagi o‘zgarishlarni teran ifoda etganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Shu tarzda “shoirliги shohligidan ulug‘, shohligi ham she‘riday ogoh” Zahiriddin Boburning lirik siymosini badiiy gavdalantiradi.

“Oybek” she‘ri ham aynan shu uslubda yaratilgan. “Shoh Bobur” she‘ridagi kabi (“Bobur” so‘zi radif bo‘lib kelgan) Oybek o‘zi ham misralar osha radif vazifasini bajargan. Binobarin, radifning badiiy vazifasidan kelib chiqilsa, ushbu so‘zga shoirning qanday mazmun yuklaganligi oydinlashadi.

O‘zicha tushmagan osmondan Oybek,
Yaralmish mehr ila armondan Oybek (17-b.)

G‘azal vazni va shaklida bitilgan bu satrlar matla‘dir. Ushbu she‘r aruzning hazaj bahrida yozilgan.

Agarchi davr uni tildan ayurdi,
Vale ayrilmadi iymondan Oybek.

Ma‘lumki, Oybek o‘tgan asrning 50-yillarida qator qarama-qarshiliklarga duch kelgan. Natijada u xastalangan. Shoir aytganiday, davr uni tildan ayirgan. Lekin Oybek o‘z e‘tiqodida mustahkam turgan.

Hasad g‘avg‘osiyu minnat jafosi
Ne ko‘rdi ul buzug‘ davrondin Oybek.

Oybek yashagan davr deyarli sobiq tuzumga to‘g‘ri keladi. Barcha davrlarda ham yorqin iste‘dodlarga hasad ko‘zi bilan qaralgan. Ko‘klarga ko‘tarilgan sobiq tuzumda Oybekka o‘xshagan yuksak iqtidor sohiblarining hayoti bir teki, illiq kechmagan. Shu bois shoir “buzug‘ davron” Oybek boshiga ko‘p ko‘rguliklar solganligini qalamga oladi.

XULOSA

Umuman olganda, istiqlol davri o‘zbek she‘riyatida g‘azal yetakchi janrlardan biriga aylandi. E.Vohidov, J.Kamol, S.Sayyid singari taniqli shoirlar mazkur janr imkoniyatlaridan foydalanib, jozibali poetik manzaralar yaratishga erishdilar. Yuqoridagi tahlillarda kuzatilganidek, bu davrda yaratilgan g‘azallarga xos mushtarak jihat – ularning, asosan, mumtoz adabiyotda keng tarqalgan aruzning ramal va hazaj bahrlarida yaratilganligidir.

ADABIYOTLAR

- 1.Jamol Kamol. Asr bilan vidolashuv. Saylanma. Olti jildlik. I jild. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018. –B. 302.
- 2.Navoiy A.MAT. 4-jild. T.: Fan, 1989. B.-428.
- 3.Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4-jildlik, 2-jild. T.: Fan, 1983. B.-373.
- 4.Navoiy asarlari lug‘ati. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972. B.-272.
- 5.Sirojiddin Sayyid. Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni. –Toshkent: “Sharq”, 2005, 32-b.
- 6.Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati. –Toshkent: “Fan”, 2007, 153-b.
- 7.Abdulhakim Nurboy. “Olamda eng og‘ir –so‘zning yo‘lidir”// “O‘zAS”, 2005 yil, 1